Аннотация: В данной статье исследованы теоретические и методологические основы оценки инвестиционных рисков, влияющих на инвестиционные проекты. В долгосрочной перспективе эффективность деятельности предприятий, обеспечение их развития и повышение конкурентоспособности в первую очередь определяются уровнем их инвестиционной активности. Правильная оценка инвестиционных рисков позволяет реализовать проект даже при изменении условий его выполнения. Одной из основных целей исследования является обобщение методологических подходов к анализу инвестиционных рисков в условиях растущей экономической неопределённости.

Ключевые слова: финансово-инвестиционная деятельность, риски инвестиционных проектов, методы оценки рисков, оценка риска инвестиций в строительство, угрозы инвестиционных проектов, методы оценки угроз.

KIRISH

Investitsiya loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o’zaro bog’liq bo’lgan tadbirlar majmui [1] sifatida qaraladi. Iqtisodiy amaliyot va izlanishlarda investitsiya loyihalariga ta’sir etuvchi risklarni aniqlash, risklarni samarali boshqarish va pasaytirish yo’llariga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Risklarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish va baholashda zararsizlik nuqtasini aniqlash, ekspert baholash, statistik va dinamik usullar, SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik usullar hamda stsenariylar usullarini takomillashtirish yo’nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan investitsiya loyihalariga ta’sir qiluvchi risk omillarini aniqlash, tahlil qilish, baholash va samarali boshqarish hamda pasaytirish yo’llari kompleks va tizimli tarzda to’liq o’rganilmaganligi mazkur sohada yanada ko’proq, chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi. O’zbekistonda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, yuqori iqtisodiy o’sishni ta’minlash hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yo’lga qo’yishda investitsiya loyihalarining samaradorligini va risk darajasini baholashga e’tibor qaratilmoqda. Respublikaning investitsiya faoliyatini isloh qilish yuzasidan hukumatimiz tomonidan xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatning investitsiya salohiyatini to’la namoyon etish choralari ko’rish, shuningdek, iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo’yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantirish vazifalari belgilangan. Mazkur

vazifalar ijrosini ta'minlashda mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarga ta'sir qiluvchi risklarni baholash uslubiyatini takomillashtirish va ularni pasaytirishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklar va ularni baholashning ilmiy-nazariy asoslari xorij iqtisodchi-olimlar F.Nayt, U.Sharp, G.Aleksander, D.Beyli, A.Damodaran, M.Krui, D.Galay, R.Mark ilmiy ishlarida tadqiq etilgan¹.

MDH mamlakatlari olimlaridan P.Vilenskiy, V.Livshchits, S.Smolyak, I.Xominich, E.Stoyanova, V.Bocharovlar tomonidan tadqiq qilingan².

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan Sh.Abdullaeva, N.Jumayev, F.Mirzaev, K.Xomitov, G.Bekimbetovlarning ilmiy ishlarida investitsiya risklari va investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari bevosita va bilvosita tadqiq qilingan³.

Mazkur tadqiqotlarda investitsiya loyihalarini samaradorligini baholash usullarini nazariy asoslash va amaliyotda qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, hududlar, alohida korxonalar ehtiyojlariga muvofiq investitsiyalarni tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu ishlar asosan risklarni baholash va ularning investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri masalalariga bag'ishlangan. Biroq, hozirgi bosqichda investitsiya va moliyaviy tahlilning o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligi masalalari ayniqsa dolzarbdir, chunki ularning kombinatsiyasida korxonaning moliyaviy-investitsiya faoliyatiga nisbatan yangi boshqaruv qarorlarini tanlash va asoslashni ta'minlashning tarkibiy elementlari majmuasini hamda risklarni baholashning yangi konsepsiyalari va usullarini shakllantirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda investitsiya riskini baholash bo'yicha xalqaro amaliyot xususiyatlari, ularning iqtisodiyotdagi o'rni borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy umumlashtirish va xulosalar chiqarish jarayonida abstrakt-mantiqiy va monografik usullardan, shuningdek, risklarni baholash va uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirishda tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uzoq muddatli istiqbolda korxonalarning samaradorligi, ularning rivojlanishini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish birinchi navbatda ularning investitsion faolligi darajasi bilan belgilanadi. Investitsiya risklarini malakali baholash, loyihani amalga oshirish shartlari o'zgargan taqdirda ham uni amalga oshirish imkonini beradi. Korxonalar faoliyatining uzoq muddatli davrdagi samaradorligi, eng avvalo, ularning investitsion faolligi darajasi, ya'ni real aktivlarga investitsiyalash bilan belgilanadi. Hozirgi bosqichda investitsiya va moliyaviy tahlilning o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligi masalalari ayniqsa dolzarbdir, chunki ularning kombinatsiyasida korxonaning moliyaviy-investitsiya faoliyati va risklarni baholashning yangi konsepsiyalari va usullari bo'yicha yangi boshqaruv qarorlarini tanlash va asoslashni ta'minlash uchun tarkibiy elementlar to'plamini shakllantirish mumkin [2]. Moliyaviy-investitsion tahlilning muhim vazifasi ob'ektiv va subyektiv risklarni hisobga olgan holda loyihani amalga oshirish natijalarini va uning korxonaning moliyaviy holatiga ta'sirini aniqlashdir [3]. Moliyaviy-investitsion faoliyat yo'nalishlarini tadqiq etish va risklarni baholashning dolzarbligi jahondagi tobora ortayotgan

- 1 Найт Ф.Х. Риск, неопределенность и прибыль./ Пер. с англ. – М.: «Дело», 2003. – 360 с.; У.Ф.Шарп, Г.Дж.Александр, Д.В.Бэйли. Инвестиции: учебник / У.Ф.Шарп, Г.Дж.Александр, Д.В.Бэйли. – М.: «Инфра-М», 2010. – 1034 с.; Дамодаран Асват. Инвестиционная оценка. Инструменты и методы оценки любых активов. – М.: «Альпина Паблишер». 2021. – 1320 с.; Крузи М., Галай Д., Марк Р. Основы риск-менеджмента. – М.: «Юрайт», 2019. – 390 с.
- 2 Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: Теория и практика: учеб. пособие. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: «Дело», 2008. – 485 с.; Инвестиции: Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика» / Б.Т.Кузнецов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2017. С. – 623 с.; Управление финансовыми рисками: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / И.П.Хоминич [и др.]; под редакцией И.П.Хоминич, И.В.Пещанской. – М.: «Юрайт», 2019. – 345 с.; Финансовый менеджмент: теория и практика / Е.С.Стойанова. – М.: «Перспектива», 2010. – 656 с.; Бочаров В.В. Финансовый анализ. Краткий курс. 2-е изд. – СПб.: «Питер», 2009. – 240 с.
- 3 Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. – Т.: «Молия», 2002. – 303 б.; N.H. Jumayev and others. Ways to attract investment with assessment of investment potential of the regions. International Journal of Economics, Commerce and Management Vol. VII, Issue 2, February 2019; Мирзаев Ф.И. Молиявий рискларнинг турлари, таснифи, бошқариш ва баҳолаш усуллари. – Т.: «Молия», 2006. – 135 б.; Khomitov K. Factors of increasing investment attractiveness in agriculture. / Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. Volume 12, Issue 7 Special Issue, 2020, Pages 18-24; Бекимбетова Г.М. Корхоналар инновацион фаолиятини ривожлантириш шароитида инвестиция лойиҳаларини баҳолаш самарадорлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: ТМИ, 2019. – 24 б.

iqtisodiy beqarorlikning oshishi bilan yanada kuchaymoqda. Moliyaviy qo'yilmalar tufayli yuzaga keladigan xavf-xatar muqarrardir. Ko'pgina investitsiya loyihalarida mavjud bo'lgan risk muammolari umumiy hodisa va universal fenomenologiya deb ataladi, ya'ni tegishli loyihalar tegishli risk muammolariga duch keladi. Investitsiya riski tasodifiylikka ega, ya'ni investitsiya loyihalari investorlarga kutilmagan, tasodifiy risklarni keltirib chiqaradi.

Investorlar o'z tajribalari va omadlariga asosan loyihalarga sarmoya kiritadilar. Investitsiya rejimining bu turi nisbatan subyektivdir. Biroq, investorlar har doim yakuniy olingan pul miqdori haqida nisbatan noaniq tasavvurga ega bo'ladilar, bu esa risklarni baholash konsepsiyasini joriy etmasdan risklarni boshqarish sifatiga ta'sir ko'rsatadi [4]. Riskni baholash investitsiya loyihalari samaradorligini tahlil qilishning eng asosiy va ajralmas qismidir. Investitsiya faoliyati investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda korporativ huquqlar va boshqa turdagi mulkiy hamda intellektual qimmatliklar bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazish orqali ta'minlanadi.

Bizningcha, investitsiya loyihasi — bu milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning milliy qadriyatlar tizimi va vazifalari asosida belgilangan joriy qiymatlardan foydalangan holda investitsiya faoliyati subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan alohida tarmoqlar, iqtisodiyot sektorlari, ishlab chiqarishlar va hududlarni rivojlantirishga qaratilgan (tashkiliy-huquqiy, boshqaruv, tahliliy, moliyaviy va muhandislik-texnik) chora-tadbirlar majmuasidir.

Investitsion risklarning belgilovchi asosiy belgilari bo'lib investitsion muhit, loyihaning davomiyligi va hajmi, risk pozitsiyasi, profili, risk ishtahasi, investitsiya loyihasiga ta'sir ko'rsatish oqibatlari, quvvati va natijalari hisoblanadi.

Investitsiya riskini tahlil qilish [5] quyidagi ketma-ketlikni nazarda tutadi:

- investitsiya loyihasi risklarini identifikatsiyalash; investitsiya riski shakllanishining aniqlangan ichki va tashqi omillari ro'yxatini aniqlash;
- sifat va miqdoriy tahlilning ikki yoki undan ortiq yondashuvlaridan foydalangan holda ma'lum bir xavf turini baholash;
- moliyalashtirish hajmi va manbalarining moliyaviy maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- investitsiyalarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash;
- tavakkalchilikning alohida turi darajasini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi omillarni aniqlash;
- tavakkalchilikning yo'l qo'yiladigan darajasini o'rnatish uchun mezonlarni tanlash;
- tavakkalchilik darajasidan qochish yoki uni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Riskning sifat tahlili xavf omillarini, xavf sohasini, odatda, ekspert yo'li bilan aniqlashni nazarda tutadi. Bunda korxona ta'sir ko'rsata olmaydigan (tashqi yoki ob'ektiv), shuningdek, korxona ta'siriga uchraydigan (loyihaning o'z tavakkalchiligi, korporativ yoki ichki firma tavakkalchiligi, bozor tavakkalchiligi) risklar ko'rib chiqiladi [6].

Jahon moliyaviy tahlil va menejment amaliyotida investitsiya loyihasining o'z riskini tahlil qilishning turli usullaridan foydalaniladi. Eng keng tarqalgan usullarga quyidagilarni kiritish mumkin: diskont me'yoriga tuzatish kiritish usuli; riskni haqiqiy o'lchash, ishonchli ekvivalentlar usuli; samaradorlik mezonlarining sezgirlikni tahlil qilish; stsensariylar usuli; to'lov oqimlarining ehtimoliy taqsimlanishini tahlil qilish; “qarorlar daraxti” usuli; imitatsion modellash (Monte-Karlo usuli), statistik, ekspert, analogiyalar usuli. Investitsion risklarni baholashning ushbu usullarining tavsifi 1-jadvalda keltirilgan [7].

1-jadval. Investitsiya risklarini baholash usullari tavsifi [7]

Usul	Tavsifi
Riskni hisobga olgan holda diskont me'yoriga tuzatish kiritish usuli (risk adjusted discount rate approach – RAD)	Risksiz yoki minimal qoniqarli deb hisoblangan diskontning bazaviy me'yoriga tuzatish kiritishdan iborat. Riskka tuzatish kiritilgan diskontlash stavkasi – bu riskli investitsiyalarning joriy qiymatini hisoblashda risk uchun kutilayotgan mukofotni risksiz stavka bilan birlashtirish natijasida olingan stavkadir.
Ishonchli ekvivalentlar (aniqlik koeffitsientlari) usuli	Loyihani amalga oshirishning har bir davri uchun maxsus pasaytiruvchi koeffitsientlarni joriy etish orqali diskont me'yoriga emas, balki to'lovlar oqimining kutilayotgan qiymatlariga tuzatish kiritishni nazarda tutadi.
Haqiqiy risk o'lchovi	Riskni o'lchash oldingi ma'lumotlardan tadqiqot sharti sifatida foydalanadi, mos holdagi investitsiya riskini baholaydi va ehtimollik nazariyasiga muvofiq zararlarni aniqlaydi. Moliyaviy investitsiyalar riskini baholash uchun ehtimollik hisoblashlar orqali moliyaviy investitsiyalar keltirib chiqaradigan zararlarni tahlil qilinadi. Yo'qotishlar chastotasini baholashning ikki turi mavjud. Dastlab ehtimollar taqsimoti nazariyasi yo'qotishlar taqsimoti to'g'risida empirik ma'lumot olish uchun oldingi axborotlar ma'lumotlarini saralash uchun ishlatiladi, so'ngra taqsimot holatiga qarab riskning paydo bo'lish ehtimoli baholanadi. Ikkinchidan, axborot yo'qotilishi ehtimollar taqsimoti jadvalini shakllantirish uchun asos sifatida qaraladi. Ma'lumot aniq bo'lsa, baholash natijasi ishonchliroq bo'ladi.

Statistik usul	Moliyaviy qo'yilmalarning kutilayotgan daromadlilikdan chetlanishini baholash va investitsion daromadning yo'qotilishini bashorat qilish uchun ishlatiladi. Dispersiya qiymati qanchalik katta bo'lsa, investitsion risk indeksi shunchalik katta bo'ladi. Ikkinchisi – qiymat riskini baholash bo'lib, u yo'qotishlarning maksimal qiymatini o'lchash borasida muhim xususiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, indeks moliyaviy aktivlarning haqiqiy risk darajasini aniq ko'rsatishi mumkin. Indeks qanchalik katta bo'lsa, investitsiya riski shuncha yuqori bo'ladi. Demak, korxona riskni baholash davrida indeks yordamida baholash vazifasini bajarishi lozim.
Xavf-xatarlarning ekspert tahlili	Loyiha bilan ishlashning dastlabki bosqichlarida etarli ma'lumotlar bo'lmaganda qo'llaniladi. Bu ekspertlar tomonidan har bir xavf turi bo'yicha baho berish va mezonlarning vazn koeffitsientlarini hisobga olgan holda riskning integral darajasini hisoblashdan iborat.
Analogiyalar usuli	Yo'qotishlar ehtimolini hisoblash maqsadida shunga o'xshash loyihalarni amalga oshirishga oid korxona ixtiyorida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni tahlil qilishdan iborat.
Stsenariy tahlili	Tahlilchi yoki investordan uchta mumkin bo'lgan stsenariyni yaratishni talab qiladi: asosiy stsenariy odatiy/tipik holatga tegishli; eng yomon stsenariy – agar biror narsa rejalashtirilganidek bo'lmasa, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan eng ekstremal vaziyat; eng yaxshi stsenariy esa eng maqbul prognoz qilinadigan natijaga tegishli. Masalan, investitsiyalarning sof joriy qiymatini aniqlash uchun diskontlash stavkasi va soliq stavkasidan foydalanish mumkin.
Loyihaning sezgirlikni tahlil qilish	Loyihaning dastlabki parametrlari o'zgarishining uning yakuniy natijasiga ta'sirini baholashdan iborat bo'lib, odatda loyiha sof keltirilgan qiymati (NPV)ga ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi.

Investitsiya loyihalari risklarini baholashda stsenariy tahlili va sezgirlik tahlili risk summasi va potentsial foydani aniqlashda o'xshashlikka ega. Bu ikki usul o'rtasidagi farq shundaki, sezgirlik tahlili bir vaqtning o'zida faqat bitta o'zgaruvchining o'zgarish ta'sirini o'rganadi. Boshqa tomondan, stsenariy tahlili barcha kirish o'zgaruvchilarining bir vaqtning o'zida o'zgarishi ta'sirini baholaydi. Bunday yondashuvda tahlilchi kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil hodisalarni o'ylab topadi. Sezgirlik tahlili mahsulot yoki xizmatlar bahosining ma'lum bir foizga oshishi keyinchalik sotilgan mahsulot miqdorining necha foizga kamayishiga olib kelishi haqidagi prognozni ifodalaydi [8].

Loyihaning sezgirlikni tahlil qilish zamonaviy sharoitlarda qo'llash uchun dolzarb bo'lib ko'rinadi, chunki u bir qator shubhasiz afzalliklarga ega [9]:

1. Chuqur baholashni ta'minlaydi. Sezgirlik tahlili har bir mustaqil va bog'liq o'zgaruvchini batafsil o'rganishni talab qiladi. Bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bu aniqroq bashorat qilishga yordam beradi.

2. Faktlarni tekshirishda yordam beradi. Sezgirlik tahlili kompaniyalarga berilgan o'zgaruvchilarning muvaffaqiyat/muvaffaqiyatsizlik ehtimolini aniqlashga yordam beradi. Masalan, kompaniya o'z mahsulotlarini sotishni ko'paytirish yo'llarini izlamogda. Sezgirlik tahlili ularga yanada nafis qadoqlash ularning savdosini ma'lum miqdorga oshirishini aniqlashga yordam beradi.

Investitsiya loyahasining sezgirlikni tahlil qilishning mohiyati investitsiyalarning asosiy ko'rsatkichi — uning samaradorligiga turli omillarning ta'sirini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu tahlil kirish ma'lumotlari o'zgarishining loyihaning yakuniy xususiyatlariga ta'sirini baholashga harakat qiladi.

Sezgirlik tahlili odatda quyidagi bosqichlardan iborat:

- investitsiyalar samaradorligini o'lchaydigan asosiy ko'rsatkichni aniqlash;
- noaniqlik holatidagi omillarni aniqlash;
- amaliyotning ikkinchi bosqichida tanlangan noaniq omillarning nominal va chegaraviy (pastki va yuqori) qiymatlarini belgilash;
- noaniq omillarning barcha tanlangan chegaraviy qiymatlari uchun asosiy ko'rsatkichni baholash;
- barcha noaniq omillar uchun sezgirlik grafigini qurish (Spider Graph).

Ushbu usul alohida omillarning loyiha muvaffaqiyatiga ta'sirining yaxshi namunasidir. O'zgarishlarga qarshilik qanchalik yuqori bo'lsa, uning xavfi shuncha past bo'ladi. Shunday qilib, parametrlarning o'zgarishiga NPV sezgirliги eng past bo'lgan loyiha kamroq riskli hisoblanadi.

Qurilish loyihalarining investitsiya risklarini baholashda loyihaning sezgirlikni tahlil qilishning ko'rsatilgan usulini qo'llashdan oldin quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Tashqi va ichki muhit tahlili. Investitsion qurilish loyihasining muhiti ko'plab o'zgaruvchilardan iborat: bozor sharoitlari, turli tashkilotlar, global xavf-xatarlar, siyosiy va huquqiy muhit, raqobatchilar, yetkazib beruvchilar, iste'molchilar. Shuningdek, bu bosqichda loyihaaning ma'lumotlari, jumladan, pudrat shartnomasi, qurilish va smeta hujjatlari; qurilishni tashkil etish loyihasi; ishlarni bajarish rejasi; oldingi loyihalarni amalga oshirish tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar batafsil o'rganiladi va tahlil qilinadi.

2. Loyihaaning investitsion tahlili, investitsiya loyihasi samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash. Investitsiya loyihasi samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir: Sof keltirilgan qiymat (NPV), Daromadlilikning ichki me'yori (IRR), Rentabellik indeksi (PI), Diskontlashtirilgan qoplash davri (DPP) [10].

3. Risklarning sifatli (ekspert) tahlili. Qurilish biznesidagi asosiy risklar quyidagilardan iborat:

4. 3.1. Loyihaga nisbatan tashqi (bozor) risklari:

- iqtisodiy vaziyatning yomonlashish riski (risk №1);
- milliy valyutaning qadrsizlanish riski (risk №2);
- inflyatsiyaning o'sish riski (risk №3);
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qarz mablag'laridan foydalanish imkoniyatining pasayishi va ularning qimmatlashishi riski (risk №4);

– qurilish mahsulotlariga to'lovga layoqat talabining pasayishi riski (risk №5);

– qurilish sohasida qonunchilikning qat'iylashtirilishi riski (risk №6).

5. 3.2. Ichki risklar — bu loyihaaning o'zidagi risklardir:

- insofsiz pudratchilar riski (risk №7);
- qurilish maydonining joylashuvi bilan bog'liq risklar (risk №8);
- loyiha bo'yicha rejalashtirilgan foydaning pasayish riski (risk №9);
- qurilish muddatlariga rioya qilmaslik riski (risk №10);
- ishlar hajmining ko'payishi va loyihani moliyalashtirish budjetidan oshib ketish riski (risk №11);
- zarur texnik resurslar (shu jumladan qurilish uskunalari) yo'qligi riski (risk №12);
- qurilish texnologiyalariga rioya qilmaslik riski (risk №13);
- qurilish sifatining pasayish riski (risk №14);
- qurilish xavfsizligining buzilishi riski (risk №15);
- qurilish loyihasini amalga oshirish uchun malakali xodimlarning yetishmasligi riski (risk №16).

6. Quyida ekspert baholari yordamida o'tkazilgan risklarning sifatli tahlilini qo'llash imkoniyatini ko'rsatib o'tamiz. Baholar 1 dan 10 ballgacha qo'yildi, bunda 1 – riskning past darajasi yoki riskni amalga oshirish ehtimolining past darajasi, 10 – yuqori risk yoki riskni amalga oshirishning yuqori ehtimoli. Ekspertlar sifatida qurilish sohasi mutaxassislari, qurilish kompaniyalari menejerlari ishtirok etdi. Risklarning ekspert baholari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Riskni ekspert baholash [10]

№	Risk nomi	Risk oqibatini baholash	Ehtimollikni baholash	Risk darajasi
1	Iqtisodiy vaziyatning yomonlashish xavfi	8	8	64
2	Milliy valyutaning qadrsizlanish xavfi	7	8	56
3	Inflyatsiyaning o'sish xavfi	9	7	63
4	Kreditlar olish imkoniyatining pasayishi	9	7	63
5	To'lovga layoqatlilikning pasayishi	7	8	56
6	Qurilish sohasida qonunchilik o'zgarishi	4	5	20
7	Insofsiz pudratchilar	7	7	49
8	Qurilishning joylashishi	4	5	20
9	Loyiha budjetidan oshib ketish	8	8	64
10	Uskunaning yo'qligi	6	7	42
11	Tehnologiyaga rioya qilmaslik	8	9	72
12	Qurilish sifatining pastligi	7	8	56
13	Xavfsizlik qoidalarini buzish	7	7	49
14	Xodimlar yetishmasligi	5	6	30

Loyihaaning beqarorligi aniqlanganda, loyihaaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga quyidagi zaruriy o'zgartirishlarni kiritish tavsiya etiladi: qarz summasi yoki muddatini o'zgartirish, masalan, qarzni to'lashning

“engillashtirilgan” jadvalidan foydalanish; moliyaviy zaxiralar, pul zaxiralari va maxsus jamg‘armalarga badallar ajratish kabi zaxiralarni tashkil etish; loyiha ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar shartlarini kelishish; loyiha ishtirokchilarini u yoki bu sug‘urta hodisasidan sug‘urtalash masalalarini ko‘rib chiqish; bozorni marketing tadqiqoti; shartnomalarning eng foydali shartlariga ega bo‘lgan yetkazib beruvchilarni izlash.

Investitsion risklarning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar namoyon bo‘ladi: yuzaga kelgan vaziyatning tasodifiy xarakteri; muqobil yechimlarning mavjudligi; kutilayotgan natijani aniqlash imkoniyati; qo‘shimcha xarajatlar ehtimoli; qo‘shimcha daromad olish imkoniyati.

Risklarni baholashning statistik usullarini qo‘llashda statistik ma‘lumotlarni shakllantirish muammolari; ma‘lumotlarni to‘liq qayta ishlashning imkoni yo‘qligi; yuqori resurs sig‘imini talab etilishi kabi muammolarga duch kelinadi.

Ekspert baholash usuli riskni hisobga olish usullari orasida yuqori subyektivlik bilan ajralib turadi. Matematik modellashirishdan foydalanishga asoslangan usullar kuchli dasturiy ta‘minotni talab qiladi, ayniqsa kichik korxonalar va jismoniy shaxs bo‘lgan tadbirkorlar uchun amaliy qo‘llashda qiyinchiliklarga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy sharoitlarda investitsiya risklarini baholash uchun, bizning fikrimizcha, sezgirlikni tahlil qilish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki bu usul etarlicha sodda (faqat bitta kirish parametrini sozlash jarayonini va uning umumiy modelga qanday ta‘sir qilishini o‘rganishni nazarda tutadi) va boshqa usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: chuqur baholashni ta‘minlaydi va dalillarni tekshirishga yordam beradi. Loyihaning sezgirlikni tahlil qilish ushbu loyihaning belgilangan parametrlari ma‘lum darajada o‘zgarganda loyiha samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi (NPV yoki IRR) qanchalik o‘zgarishini ko‘rsatadi. Dastlabki shart-sharoitlar o‘zgarganda loyihaning samaradorlik ko‘rsatkichlari qanchalik kuchli o‘zgarsa, ya‘ni loyiha bevosita va bilvosita omillarning o‘zgarishiga qanchalik sezgir bo‘lsa, loyihaning risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Qurilish biznesida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risk sezgirlikni tahlil qilishdan oldin loyihaning tashqi va ichki muhitini tahlil qilish, loyihaning investitsiya tahlili, investitsiya loyihasi samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash, qurilish loyihalarining risklarini sifatli (ekspert) tahlil qilish taklif etiladi [11].

Geosiyosiy keskinlik tufayli iqtisodiy beqarorlik kuchayib borayotgan sharoitda investitsiyalar samaradorligini baholash metodologiyasini yanada rivojlantirish, shaxsiy, korporativ va bozor risklarini hisobga olgan holda moliyaviy va investitsiya qarorlarining axborot-tahliliy ta‘minotini ishlab chiqish va qo‘llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O‘RQ-598-sonli «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni.
2. Котова О.С., Заступов А.В. Сравнительный анализ оценки рисков инвестиционной деятельности предприятий // Проблемы развития предприятий: теория и практика. - 2018. - № 1. - С. 189-192.
3. Лесников Р.В., Ленина В.В. Методы оценки инвестиционных рисков на машиностроительном предприятии // Тенденции развития науки и образования. – 2018. – № 44-2. – С. 61-67.
4. Аслаханова С.А., Бачаев А.А. Риск как составная часть инвестиционной деятельности. Основные виды инвестиционных рисков, методы оценки и управления//Финансовая экономика. – 2019. – № 4. – С. 895-898.
5. Зарипова И.Р., Минеева В.М., Дворников Н.В., Меркурьев Е.О. Методология анализа экономических рисков в инвестиционных проектах // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2020. – № 3 (153). – С. 86-92.
6. Халяпин А.А. Инвестиционное проектирование в перерабатывающей отрасли АПК / А.А. Халяпин, А.Н. Яковенко, К.К. Токарев // Вестник академии знаний. – Краснодар: ООО «Академия знаний», №43(2), 2021, с. 423-432.
7. Сервис оценки рисков Мастер-план [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.masterplans.ru/risk/>
8. Халяпин А.А. Мониторинг социально-экономического развития региона / А.А. Халяпин, Р.В. Еремин // Труды кубанского государственного аграрного университета. – Краснодар: Кубанский государственный аграрный университет им. И.Т. Трубилина, №31, 2011, с. 33-38.
9. Решетников М.В. Анализ рисков и чувствительности инвестиционного проекта // Вестник науки. – 2021. – Т. 5. – № 1 (34). – С. 87-89.
10. Халяпин А.А. Финансовый менеджмент в организации / А.А. Халяпин, Е.Э. Гейбель // Естественно-гуманитарные исследования. – Краснодар: ООО «Академия знаний», №24(2), 2019, с. 18-21.
11. Шугаев М.О. Методы оценки инвестиционных рисков сложных промышленных объектов//Креативная экономика. – 2022. – Т. 16. – № 5. – С. 1925-1938.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI